


FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR
ZIYOVUDDIN TOSHOV
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan
"HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA FONETIKA
VA FONOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI"
mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman
materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**FONETIKA VA FONOLOGIYA FANLARINING TARG‘IBOTCHISI,
FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR
ZIYOVUDDIN TOSHOV**

tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan

**“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA
FONETIKA VA FONOLOGIYANING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman

20-oktyabr 2023-yil

Buxoro – 2023

YOHANN VOLFGANG GYOTE ASARLARIDA GIDROPOETONIMLAR O'RNI

R.Sh. Bozorova

BuxDU Nemis filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

S. Zikirov

Nemis tili ta'lim yo'nalishi talabasi

Jahon adabiyotining buyuk namoyandasi Yohann Volfgang Gyote insoniyat badiiy tafakkurining eng yorqin vakillaridan biri, Yevropa Uyg'onish davrining so'nggi yirik siymolaridan hisoblanadi. Gyote adabiy merosidagi har bir she'riy, nasriy, dramatik, ilmiy asar daho ijodkor tafakkurining ko'plab qirralarini namoyon etadi. Uning asarlarida hayoti davomidagi kuzatishlari, quvonchu iztiroblari, hayajoni, ruhiy tushkunliklari, baxt va baxtsizliklari, yorug' olam va insoniyat taqdiri borasidagi o'y-mulohazalari, qomusiy bilimi, cheksiz-chegarasiz zakovati o'z ifodasini topgan.

O'zbek tiliga jahon adabiyoti durdonalaridan juda ko'plab asarlar tarjima qilingan. Shunday asarlar sirasiga kiruvchi romanlardan biri buyuk nemis yozuvchisi Yohann Volfgang Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asaridir. Roman tarjimon Yanglish Egamova tomonidan tarjima qilinib, o'zbek kitobxonlariga yetkazib berilgan. Yanglish Egamova nemis allomasi, jahon xalqlarining sevimli adibi, shoiri, dramaturgi Yohann Volfgang Gyote asarlarining tarjimoni sifatida dong taratgan. Yohann Volfgang Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romanini hali G'arbiy Yevropa tillaridan birorta asar to'lig'icha bevosita tarjima etilmagan bir paytda o'zbek tiliga aslyatdan o'g'irgan Yanglish Egamova keyinchalik uning "Hamroz dillar", Bruno Apitsning "Qashqirlar changalida" romanlarini, Frits Vyurtlening "Andijon shahzodasi" (Bobur yo'lbars) qissasi, Muhammad Haydar Mirzoning fors tilidagi "Tarixi Rashidiy" (Vahob Rahmonov bilan hamkorlikda) adabiy-tarixiy asari, Yohann Peter Ekkermannning "Gyote bilan gurunglar" kitobini o'zbek tilida kitobxonlar e'tiboriga havola etdi. Bundan tashqari Gyote zamondoshlarining xotiralarini o'zbekchallashtirib, o'zining adib ijodi haqidagi tadqiqotlarini qo'shgan holda "Hamroz dillar" va "Yosh Verterning iztiroblari" (yangi tahrirda) romanlari bilan birga "Muhabbatnoma" nomli kitobini chop ettirdi [1].

Gyote "Yosh Verterning iztiroblari" romanini bor-yo'g'i yigirma uch yoshida, adabiyotga endigina kirib kelgan davrida yaratgan. Ungacha muallif nemis ritsarlari tarixi mavzusidagi "Gets fon Berlixingen" dramasi bilan o'sha davr adabiy muhiti diqqatini o'ziga tortgan edi. Biroq "Verter" asari o'ziga xos jozibasi, hissiyotlarga boyligi, til xususiyatlari bilan avvalgi dramadan farq qilardi. Asar bosilib chiqqandanoq ko'plab tillarga tarjima qilindi va yashin tezligida tarqalib ketdi. Gyote ushbu romanda nemis tilining butun boyligi qudratini namoyish qildi va "Verter" tufayli nemis tili keng doiralarda tan olindi. Holbuki ungacha nemislar o'zlari ham zodagonlar davrasida frantsuz tilida so'zlashishar, nemis tili oddiy xalq tiliga aylanib qolgan edi.

Gyote o'zining "Yosh Verterning iztiroblari" romanida ulkan bir muhabbat tarixini yoritib beradi. Roman asar qahramonining o'z do'stiga yozgan xatlari asosida yozilgan. Asar Verterning Lottaga bo'lgan muhabbati bilan chegaralanib qolmay, balki romandagi har bir xat ma'lum bir mavzularni o'z ichiga oladi. Bu mavzularning hammasi asar qahramonining olgan taassurotlari va tushunchalarini yoritib berishga xizmat qiladi. Va bular leytmotiv usulda bayon qilinadi. Asardagi voqealar muallif tomonidan hikoya qilinib, men formasida yozilgan. Bu usul muallifga birmuncha avzalliklar bilan birga qiyinchiliklarni tug'dirgan. Ma'lumki ko'pgina psixologik asarlarda ham men hikoyasi tarzida yozilganini ko'rish mumkin[2].

Bunda asar qahramoni o'z ichki dunyosining barcha qirralarini, unda kechayotgan dardu sitamlari haqida kitobxonga bayon qilib boradi. Muallif, ya'ni hikoya qiluvchi bo'layotgan voqealardan xabardor qilishi, hattoki ba'zi detallar va epizodlarni olib tashlashi mumkin va ayni paytda voqealarda o'zi ham ishtirok etadi. Hikoyachi voqealarni bayon qilib borarkan, bo'lib o'tgan hodisalarni tahlil qiladi, ular haqidagi o'z qarashlarini, fikrlarini bildirib boradi:

O'zining "Yosh Verterning iztiroblari" epistoliar romanida Yohann Volfgang Gyote, "Bo'ron va hujum" (Shturm und Drang) davrida tasniflanadi, Sharlotta bilan muvaffaqiyatsiz sevgi

munosabatlari haqida gapiradi. U Vetslar Oliy sudida yuridik trening davomida tanishgan sudya Adam Baffning qizi. Ularning sevgisi umidsiz, chunki Sharlotta Gannoverdan elchixonona kotibi bilan unashtirilgan. Gyotening romani yosh yuridik stajyor Verter haqida bo'lib, u o'z do'sti Vilgelmgacha kichik Valxaym shahrida Lottaga bo'lgan baxtsiz sevgisi haqida, to o'z joniga qasd qilguniga qadar xat yozadi.

1771-yil 4-maydan 1772-yil 24-dekabr gacha bo'lgan davrda Verterning barbod bo'lishi tobora oydinlashib bormoqda, chunki Lotta Albert bilan unashtirilgan va keyinchalik unga uylangan. Verterning oxiri ham avtobiografik fonga ega, masalan, Gyotening do'sti Karlning o'z joniga qasd qilishi.

Yozuvchining zamondoshlari Verter obrazida o'zini Vetslar shahrida yashab, Kestnerning qallig'i Lotta Buffning muhabbatiga mahkum etganida tasvirlagan, deb hisoblashgan. Biroq, keyinchalik Gyotega nashr etilgan maktublar shuni ko'rsatdiki, roman syujetida hayotning turli holatlari bilan bog'liq tajriba va taassurotlar aks etgan. Kestnerdan Gyote Vetslardagi Brunsvik elchixonasining yosh xodimi Karl Vilgelm Yeruzalemning o'z joniga qasd qilgani haqida bilib oldi.

Verterning taqdiri o'ziga xos giperbola: unda barcha qarama-qarshiliklar so'nggi darajada keskinlashgan, bu esa uni o'limga olib boradi. Verter romanda favqulodda iste'dod sohibi sifatida ko'rsatilgan. U nozik va rang-barang tabiat tuyg'usiga ega bo'lgan yaxshi chizmachi, shoirdir. Shoirtabiqli qahramonimiz go'zal tabiat manzaralaridan zavq olib, sokinlik, tanholikni o'z qalbiga darmon deb biladi. Romandagi bosh qahramon Verter tabiatga oshmo qalbli inson bo'lganligini asarda tasvirlangan ruhiyatidan anglab olish qiyin emas. Shuningdek, ushbu asarning bir necha o'rnida gidronimlarning ko'chma ma'noda gidropoetonim sifatida qo'llangani kuzatiladi [3].

Nem: *Jeder Baum, jeder Hecke ist ein Strauss von Blüten, und man möchte zum Maikäfer werden, um in dem Meer vom Wohlgerüchen herumschweben und alle seine Nahrung darin finden zu können* [4].

O'zbekcha: *"Har bir daraxt, har bir butoq bamisoli guldastadek tuyuladi va xushbo'y hidlar dengizida suzish hamda ulardan lazzatlanish uchun kapalak bo'lib qolging keladi"* [5].

Verter Bo'ron va Hujum adabiy obrazlari bilan bog'langan personaj. Ular kabi ehtirosli va sezgir, u isyonkor tabiatga ega, qadimiy adabiyotga ishqiboz, hayotiylik bilan to'la, lekin aynipaytda o'zini kamsitilgan, hayotdan norozidek his qiladi. Verter dastavval o'z ichida g'amgin kayfiyatni bostirishga qodir, tabiat go'zalligidan, koinotning ulug'vorligidan zavqlanadi, unashtirilganini bilib, sevib qolgan Lottani ehtiroim va ishtiyoq bilan tasvirlaydi. O'z ishqining umidsizligini anglagan Verter o'zini tevarak-atrofdagi olamni boshqacha idrok etadi: "Cheksiz hayot tomoshasi men uchun mangu ochiq qabr qariyga aylandi". Verterning o'qish doirasi ham o'zgaradi: dastlab Lotta bilan tanishishning dastlabki xatlarida u Guberni o'qigan bo'lsa, ko'p o'tmay Ossian she'rlarining ma'yus sahifalari uni o'ziga tortib ketadi. Voqealar rivojida maktublarning uslubi hissiy muvozanatning yo'qolishi haqida gapiradi: "Menda endi na ijodiy tasavvur, na tabiatga muhabbat bor. Mening faol kuchlarim noto'g'ri ketdi." Verter ishqiy adabiyot qahramonlarini kutadi: o'zaro sevgidan umidini yo'qotib, xizmatdan ko'ngli qolib, u chinakam "dunyo qayg'usini" boshdan kechiradi, o'z ahvolini Masihning azobi bilan solishtiradi.

Verter hayotda faqat izzat chekish, o'z kamchiliklarini ojizona kuzatish, bilimdonligidan hamletona nafratlanish, bundan o'zining qiynalishidan boshqa biron bir vazifani uddalashga qodir bo'lmasa-da, Tomas Mann uqtirganidek, har qanday chegaralashlardan qutulib cheksizlikka intilish Verter tabiatining asosidir, shu jihatdan u Faustga o'xshab ketadi.

Yoki: **Nem:** *O meine Freunde! Warum der Strom des Genies so selten ausbricht, so selten in hohen Fluten hereinbraust und eure staunende Seele erschüttert? – liebe Freunde, da wohnen die gelassenen Herren auf beiden Seiten des Ufers, denen ihre Gartenhäuschen, Tulpenbeete und Krautfelder zugrunde gehen würden, die daher in Zeiten mit Dämmen und Ableiten der künftigen drohenden Gefahr abzuwehren wissen* [6].

O'zbekcha: *"O, do'stlarim! Buyuk zakovat chashmasi nega bunchalik kam toshadi, nega tortinchoq qalblaringiz o'z to'lqinlari bilan sizni larzaga soladi? Qimmatli do'stlarim! Negaki, daryoning har ikki qirg'og'ida, xavfning oldini olib, shiyponlari, gulpushtalari, ekinzorlarini suv*

yuvib ketmasligi uchun avvaldan toshqinni qaytaruvchi kanal va to'g'onlar qurib qo'ygan mulohazali janoblar yashaydi" [7]. Ko'pincha inson kechinmalarini tasvirlash va talqin qilish uchun suv nomlari ko'p qo'llanishi kuzatiladi:

Nem: "Ich saß, ganz in *malerische Empfindung vertieft*, die dir mein gestriges Blatt sehr zerstückt darlegt, auf meinem Pfluge wohl zwei Stunden" [8].

O'zbekcha: "Ijodiy kechinmalar girdobiga g'arq bo'lib, ikki soatlar chamasi omoch ustida o'tirdim, kechagi xatimda bular pala partish bayon qilingan" [9].

Nem: "Wenn du auf diesen Eingang viel Hohes und Vornehmes erwartest, so bist du wieder übel betrogen; es ist nichts als ein Bauerbursch, der mich zu dieser lebhaften Teilnahme *hingerissen* hat" [10].

O'zbekcha: "Agar bunday muqaddimadan keyin qandaydir ko'tarinki ruhdagi biror narsa kutayotgan bo'lsang, yana qattiq aldanasan; bunday to'lqinlanishimning sababchisi bir dehqon yigitcha, xolos" [11].

Nem: "Kurz, ich stieg aus dem Wagen wie ein Träumender, als wir vor dem Lusthause stille hielten, und war so in Träumen rings *in der dämmernden Welt* verloren, daß ich auf die Musik kaum achtete, die uns von dem erleuchteten Saal herunter entgegenschallte" [12].

O'zbekcha: "Xullas, bazm bo'ladigan uy oldida to'xtaganimizda, foytundan xuddi tush ko'rayotgan odamdek tushdim va kechki qorong'ilik cho'kayotgan dalalarga tikilganicha shu qadar xayol daryosiga botibmanki, hatto yop-yorong' zaldan eshitilayotgan kuy ham qulog'imga kirmasdi" [13].

Xullas, badiiy nutqda his-tuyg'ular dengiziga g'arq bo'lmoq-in dem Strome von Empfindungen versinken; to'lqinga g'arq bo'lmoq-in den Strom fortgerissen; xayol daryosiga g'arq bo'lmoq-in Träumen verlieren; hissiyotlar dengizida suzmoq-in aller Fülle der Empfindung herumschweben; suvi qurigan quduqqa o'xshab - wie ein versiegter Brunnen; qaqragan chelakka o'xshab - wie ein verlechter Eimer; to'lqinlarni quchmoq-die Fluten fassen; ko'zlarimdan oxirgi yoshlarni buloqdek oqizmoqda-presst die letzten Tränen aus meinem versengten Gehirne; to'lqinlar huv anavi cho'qqilar tubida shovqin solmoqda-rauschende Wellen spielen am Felsen ferne; to'lqinlar quvunch bilan seni o'rab olishadi - freudig umgeben dich die Wellen und baden dein liebliches Haar; qalbing shamol tinchigandan so'nggi ko'l yanglig' osuda - ruhig deine Brust wie der See; nazaring dengiz ustidagi tumandek edi - dein Blick war wie Nebel auf der Welle kabilar ko'p uchraydi.

ADABIYOTLAR:

1. Johann Peter Ekkerman "Gyote bilan gurunglar" Ya.Egamova tarjimasi 2016 y.
2. Johann Wolfgang Gyote. Yosh Verterning iztiroblari. Ya.Egamova tarjimasi. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2018. – B.11.
3. J.V.Gyote. Yosh Verterning iztiroblari. Tarjimon Ya.Egamova. - «Yangi asr avlodi» nashriyoti, Toshkent, 2018.
4. J.W.Goethe. "Die Leiden des jungen Werthers", Ленинград, „Просвещение“, 1975.
5. Bozorova R. S. Interpretation of poetonims in the novel by Johann Wolfgang Goethe "The sufferings of young Werther" //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2019. – T. 1. – №. 12. – С. 182-185.
6. Bozorova R. Tarjima san'ati va uning muammolari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – T. 29. – №. 29.
7. Bozorova R. Gidropoetonimlarning nemis, ozbek va rus tillaridagi frazeologik birliklarda aks etishi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – T. 29. – №. 29.
8. Bozorova R.Sh. Nemis gidronimlarining semantikasi va tuzilishi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – T. 32. – №. 32.
9. Bozorova R.Sh. Nomlarni Tadqiq Qilishda Turli Yondashuvlar //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – T. 29. – №. 29.

III BO'LIM. ILMIY ANJUMAN MATERIALLARI.....	74
I sho'ba. Zamonaviy fonetika va fonologiyaning dolzarb masalalari.....	74
Xurram Rahimov. Фикрлашга ўргатайлик.....	74
Saydaliyev Saidumar. Fonetika darsida xatolar ustida ishlash.....	76
Alimova M.X., Мамадалиев А.М. ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР АҲАМИЯТИ.....	79
Ismailov Yusuf. FONOLOGIK KOMPETENSIYA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA.....	84
Toшов Зиявуддин Бадриддинович. ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	86
Шухратхон Имяминова. ТОВУШ ИЛМИНИНГ ДАРФАСИ.....	89
Toшов З.Б. О ФЕНОМЕНЕ ПАУЗЫ В СПОНТАННОЙ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	91
Ҳайдаров А.А. ФОНЕТИК ЎЗГАРИШЛИ СЎЗЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	94
Расулов Зубайдулло Изомович, Саидов Хайрулло Шавкатович. ПРИНЦИПЫ ЭКОНОМИИ ФОНАЦИОННОЙ ЭНЕРГИИ.....	96
Babayev Maxmud Tashpulatovich. TALAFFUZ LUG'ATLARI YARATISHDA XALQARO FONETIK ALIFBO (IPA)DAN FOYDALANISH MUAMMOLARI.....	98
Mahmudov Alisher Yo'ldoshevich. Homidova Nafisa Ramazon qizi. NEMIS TILI PROSODIKASIDA SUPERSEGMENTAL MASALALAR TAHLILI.....	101
II sho'ba. Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolari.....	103
M.Begmatov. ILOVA KONSTRUKSIYA SINTAKTIK ALOQANING USLUBIY VOSITASI SIFATIDA.....	103
З.Жуманиёзов. НЕМИСЧА-ЎЗБЕКЧА ЛУФАТЛАРДА СОФ ДИПЛОМАТИК ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕРИЛИШИ.....	105
Жўраева Малоҳат Мухаммадовна. КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИКДА «КОНЦЕПТ», «ФРЕЙМ» ВА «ГЕШТАЛЬТ» ТУШУНЧАЛАРИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР.....	107
Найимов Сади Нарзиевич. НОМШУНОСЛИК СОҲАСИНИНГ ТЕКШИРИШ ОБЪЕКТИ.....	111
I.Mamasoliyev. Matni hosil qiluvchi birliklar tarkibidagi ilovali elementlar.....	114
Ro'ziev Y.B. VILHELM FON HUMBOLT TA'LIMOTIDA RUHIY QUVVAT BILAN TILNING O'ZARO MUNOSABATI MASALASI.....	116
Xamidova M.H. KALENDAR QANDAY PAYDO BO'LGAN?.....	119
Sh. Imyaminova. NEMIS TILIDAGI MATNLARDA FRAZELOGIZMLARNING STILISTIK FUNKSIYASI.....	122
Y.B. Ro'ziyev, Z.S.Qosimova. O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHIGA OID.....	125
D.H. Karimova, D. Narziyeva. DAS WESEN UND DIE BESONDERHEITEN DER KONZEPTE DER VARIABILITÄT UND INVARIANZ IN DER ÜBERSETZUNG.....	127
Y.B. Ruziev, Sh. Halimova. DIE SEMANTISCHE FUNKTION DES VOLLVERBS IM USBEKISCHEN.....	130
Жўраева Максуда Мухаммадовна. ЁЗМА МАТБУОТ ЖУРНАЛИСТЛАРИ ҲАҚИДА.....	133
G. M. Abishova. NEMIS TILIDAGI DATIV BILAN AKKUZATIV KELISHIGINING QORAQALPOQ TILIDA BERILISHI.....	135
Д.У. Бердимуратов. Семантико-стилистический анализ концептуально маркированной фразеогруппы (на материале толкового словаря немецкого языка).....	136
Xamidova Muborak Hafizovna. TAQVIM: O'TMISH VA HOZIR.....	138
M.T. Babayev, M.M. Atadjanova. "LUG'AT – TARJIMONNING ASOSIY QUROLI".....	140
A.P.Rahmatov. EINIGE GRUNDLEGENDE MERKMALE DER TEMPUSKATEGORIE IM USBEKISCHEN.....	142
Марупова Гульноз Умарджоновна. ТИПОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ТУРИЗМА.....	145
M.N. Boltayeva. GEOGRAFIK HAQIQATLAR.....	147
M.F. Furqatova. JADIDCHILIK HARAKATI VA MILLIY TIL RIVOJI MUAMMOLARI.....	149
G. S. Azamatova. O'zbek va nemis tillari otlarning grammatik kategoriyalari.....	151
R.Sh. Bozorova, S. Zikirov. YOHANN VOLFGANG GYOTE ASARLARIDA GIDROPOETONIMLAR O'RNI.....	153
S.T.Matmurotova, R.Q.Axmedova. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TURG'UN IBORALARINING O'XSHASH VA FARQ QILADIGAN TOMONLARI.....	156